

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi Statistika  
agentligi direktori o‘rinbosari



Z. Ziyayev

«19» iyun 2024-y.

## INTERAKTIV XIZMATNING REGLAMENTI

### STATISTIK KLASSIFIKATSIYALARDAN FOYDALANISH

#### 1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

##### 1.1. Xizmat nomi

Statistik klassifikatsiyalardan foydalanish

##### 1.2. Xizmat natijasi

Statistik klassifikatsiyalar bo‘yicha axborotlar olish.

##### 1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tuman (shahar) statistika bo‘limlari.

Statistika agentligining rasmiy veb-sayti [www.stat.uz](http://www.stat.uz).

##### 1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni

##### 1.4. Xizmatdan foydalanuvchilar

Manfaatdor davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar.

##### 1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

##### 1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga [www.stat.uz](http://www.stat.uz) murojaat qilinganda – kechayu kunduz.

##### 1.7. Tasdiq berilish muddati

O‘rnatilmagan.

## **2. Xizmatdan foydalanuvchilarni habardor qilish**

### **2.1. Axborot tarkibi va hajmi**

Statistika organlari tomonidan ishlab chiqilgan tasniflagichlar, ma'lumotnomalar va nomenklaturalar

Boshqa organlar tomonidan ishlab chiqilgan tasniflagichlar, ma'lumotnomalar va nomenklaturalar

### **2.2. Keng miqyosda xabardor qilish**

Statistik klassifikatorlar bo'yicha axborotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytining ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) "Interaktiv xizmatlar" bo'limining "Statistik klassifikatsiyalar" qismida joylashgan.

### **2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish**

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiq emas).

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmatdan foydalanish bo'yicha har qanday katta hajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki maslahat (5 daqiqadan ortiq emas).

Faks orqali: 9-00 dan 18-00 gacha so'rov bo'yicha yozma hujjatlarni (3 varaqdan ortiq emas) qabul qilish va uzatish.

Elektron pochta orqali: har qanday yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, DOC, RTF, PDF formatlarida biriktirilgan fayl) yoki kelishilgan boshqa formatlarda kechayu kunduz qabul qilish, soat 9-00 dan 18-00 gacha odiy matn formatida, DOC, RTF, PDF formatidagi biriktirilgan fayl ko'rinishida yoki kelishilgan boshqa formatlarda yozma hujjatlarni uzatish.

Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga shaxsiy murojaat – kechayu kunduz.

### **2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish**

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100170, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

### **2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)**

O'rnatilgan tartibda tasdiqlangan jadval namunalari.

## **3. Xizmat ko'rsatish**

### **3.1. Ish vaqti**

Statistika agentligiga murojaat – kecha-kunduz;

Ish tartibi: ish kunlari 9-00 dan 18-00 gacha.

### **3.2. Kutish shartlari**

O'rnatilmagan.

#### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi**

##### **4.1. Shart bo'lgan hujjatlar**

Talab etilmaydi.

##### **4.2. Xizmat haqi**

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

##### **4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari**

Statistik klassifikatorlar to'g'risida axborot olish uchun, [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytiga kirish lozim. Asosiy menyuning "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Statistik klassifikatsiyalar" qismini tanlash kerak.

##### **4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar**

1. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi xalqaro standartlarga muvofiq klassifikatorlarni ishlab chiqadi va statistika amaliyotiga joriy etadi.
2. Tasdiqlangan klassifikatorlar Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

##### **4.5. Rad etish asosi**

O'rnatilmagan.

#### **5. Sifat ta'minoti**

##### **5.1. Sifat parametrlari**

Xizmat ko'rsatish sifati ko'rsatiladigan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga to'liq javob beradi.

##### **5.2. Xizmat sifati ustidan shikoyat qilish tartibi**

Statistika organlariga belgilangan tartibda yozma murojaat qilish yoki Statistika agentligining rasmiy veb-saytidagi qarshi aloqa shakli orqali shikoyat bildirish mumkin.

### 5.3. Statistik klassifikatsiyalar bo'yicha axborotlar olish interaktiv xizmatni ko'rsatish sxemasi

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining rasmiy veb-saytiga ( <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> ) kiradi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	“Interaktiv xizmatlar” bo'limining “Statistik klassifikatsiyalar” qismini ( <a href="https://stat.uz/uz/interaktiv-xizmatlar/statistik-klassifikatsiyalar">https://stat.uz/uz/interaktiv-xizmatlar/statistik-klassifikatsiyalar</a> ) tanlaydi.	O'z xohishiga ko'ra
3-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	O'z talabiga muvofiq tegishli bandni tanlab, band nomi ustiga sichqoncha chap tugmasi bosiladi.	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Statistika agentligi	Tanlangan band “doc”, “xls” yoki arxivlangan fayl ko'rinishida murojaatchining qurilmasiga yuklab beradi.	Avtomatik tarzda

So'rovnomada qatnashish

Davlat xizmatlari ro'yxati

Elektron hisobot

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Nashrlarga elektron buyurtma berish

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar

Uslubiy materiallar

**Statistik klassifikatsiyalar**

Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati

Korxonalar va tashkilotlar KTUT kodini aniqlash

Yuborilgan xatlar holatini tekshirish

Asosiy sahifa > Interaktiv Xizmatlar

## Statistik klassifikatsiyalar

*Statistika sohasida qo'llanilayotgan statistik tasniflagichlardan foydalanish bo'yicha qo'llanma*

T/R	TASNIFLAGICH, MA'LUMOTNOMANING NOMI	XALQARO, DAVLATLARARO ANALOGLARI	TASDIQLASH TO'G'RI SIDAQI HILJJAT	JORIY ETISH SANASI
<b>Statistika organlari tomonidan ishlab chiqilgan tasniflagichlar, ma'lumotnomalar va nomenklaturalar</b>				
1.	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari umumiy davlat tasniflagichi, 2-tahrir (IFUT-2) O'zDSt 005-2011	Evropa iqtisodiy hamjamiyati faoliyat turlari statistik klassifikatsiyasi (KDES red 2) NACE Rev.2 "Statistical classification of economic activities in the European Community"	"O'zstandart" agentligining 28.01.2011 y. 05-268-son qarori	01.02.2011
2.	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-huquqiy shakllar tasniflagichi (THShT) O'zDSt 2847:2014	Mavjud emas	"O'zstandart" agentligining 03.09.2014 y. 05-568-son qarori	01.10.2014
3.	O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (M8T) O'zDSt 2914:2014	Evropa iqtisodiy hamjamiyati faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning statistik klassifikatsiyasi KPES 2008 va MDH statistika qo'mitasi tomonidan tavsiya qilingan namunaviy mahsulotlarning (tovarlar va xizmatlarning) statistik klassifikatori - SKP-2	"O'zstandart" agentligining 19.01.2015 y. 05-612-son qarori	23.01.2015